



DAVLAT TEST MARKAZI

*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O‘QUVCHILARINING  
UMUMTA’LIM FANLARI BO‘YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

O‘ZBEK TILI (IKKINCHI TIL)  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

---

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

---

*Imzo*

2–variant

© Davlat test markazi, 2022

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1. [2,4 ball]
- Imloviy jihatdan **TO'G'RI** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
- A) qutilmoq, taaluqli, muqaddam  
B) taqdimot, tamoman, takabbur  
C) intellektual, taqsimot, nadomat  
D) uchchala, qo'ng'irog', mukofot
2. [0,9 ball]
- Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zga shakldosh bo'la oladigan so'z qaysi javobda berilgan?
- Cho'qqida turgan burgut qanotlarini keng yozdi, pastlikka tomon o'qday uchdi.*
- A) Bizning oldimizga oq shohi dasturxon yozdi.  
B) Bog'dagi daraxtlar erta bahordayoq barg yozdi.  
C) Ona yurt sha'niga bag'ishlab go'zal she'rlar yozdi.  
D) Musiqa ovozi ko'nglidagi g'uborlarni biroz yozdi.
3. [1,7 ball]
- Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan qo'shimchalar haqida berilgan **TO'G'RI** javobni aniqlang.
- Hayot – ulug' ne'mat, bu ne'mat... o'z vaqti... to'g'ri foydalana olishimiz, ya'ni kuch-g'ayratimizni ezgu ishlarga, bunyodklorlikka sarflashimiz lozim.*
- A) chiqish va jo'nalish kelishigi  
B) chiqish va o'rin-payt kelishigi  
C) qaratqich va o'rin-payt kelishigi  
D) tushum va o'rin-payt kelishigi
4. [1,7 ball]
- Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan qo'shimchalar ketma-ketligi **TO'G'RI** berilgan javobni aniqlang.
- U nihoyatda ilm... inson edi, shuning uchun atrofida ilmiy salohiyati kuch... , zahmat... kishilarni to'plagan edi.*
- A) - parvar, -lik, -chan B) -dor, -li, -li  
C) -don, -lik, -kash D) -parvar, -li, -kash
5. [0,9 ball]
- Ish-harakat bildiruvchi so'z inkor ma'nosini ifodalagan gapni aniqlang.
- A) Sizning barcha o'gitlaringizni ularga yetkazmasdan qo'ymaymiz.  
B) Yo'qlamadan keyin uy vazifasini birma-bir tekshira boshladi.  
C) Yo'q, men ham bugun sizlar bilan birga borib kelishga qaror qildim.  
D) So'lim bog'da na qushlarning ovozi, na daraxtlarning shitir-shitiri eshitiladi.

6.

[2,4 ball]

Mamlakatimizning turli viloyatlarida yashayotgan, o'z mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shayotgan yoshlarimizga e'tibor berish, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e'tirof etildi.

Qaysi javobda ushbu gapdagi grammatik bog'lanishlar **NOTO'G'RI** berilgan?

- A) mamlakatimizning viloyatlarida, yashayotgan yoshlarimizga, e'tibor berish e'tirof etildi
- B) viloyatlarida yashayotgan, ularni qo'llab-quvvatlash, dolzarb masalasi sifatida
- C) mamlakatimizning masalasi, ravnaqiga e'tibor berish, mehnati bilan qo'llab-quvvatlash
- D) hissa qo'shayotgan yoshlarimizga, mehnati bilan hissa qo'shayotgan, qo'llab-quvvatlash e'tirof etildi

7.

[0,9 ball]

Jumlalarning davomi mazmun va grammatik jihatdan **TO'G'RI** moslashtirib berilgan javobni toping.

1 Mehnat inson hayotini...	a o'z farzandlarini mehnatsevarlikka o'rgatishmagan.
2 Qadim-qadimdan mehnat inson...	b zavq-shavq, rohat baxsh etadi, el ichida uni sharaflaydi.
3 Ota-bobolarimiz bejiz...	c hayotining mazmuniga aylanib kelgani barchamizga ma'lum.
	d butun orzulariga tinimsiz mehnat oqali erishadi.
	e bezaydigan, unga baxt-saodat ato etadigan yagona omildir.
	f mehnat orqali inson hayot mashaqqatlarini yengib o'tadi.

- A) 1-e, 2-d, 3-a
- B) 1-e, 2-c, 3-a
- C) 1-c, 2-b, 3-f
- D) 1-b, 2-f, 3-a

8.

[2,4 ball]

Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining **TO'G'RI ketma-ketligini yozing.**

*Xalq xizmati uchun bel bog'lash sharaftli ish darhaqiqat elga xizmat oliy himmat*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

9. [0,9 ball]  
 Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z o'rnida almashtirib qo'llash mumkin bo'lgan **ma'nodoshini yozing.**  
*U bizlarnikida uch yil yurdi, keyin o'z qishlog'iga qaytib ketdi.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
10. [2,4 ball]  
*Xamirdan qil sug'urganday* iborasi qanday ma'no anglatadi?  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
11. [2,4 ball]  
 Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqtalarning hech biri o'rnida **qo'llab BO'LMAYDIGAN kelishik qo'shimchasini yozing.**  
*Bugun mamlakatimiz... olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari farzandlarimiz... ham jismoniy, ham ma'naviy jihat... o'sishi... xizmat qiladi.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
12. [2,4 ball]  
 Quyida berilgan gapda tushirib qoldirilgan qo'shimchalardan **so'zga yangi ma'no beruvchi qo'shimchani aniqlang.**  
*Bu yer ... ga suv chiq... sak, suv... gan ekinlarga jon baxsh etgan bo'lamiz, vodiy yanada yashna... ketadi.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
13. [0,9 ball]  
 Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqta o'rnida **tushirib qoldirilgan ko'makchini aniqlang.**  
*Adib yangi maktablar ochdi, bu maktablarda diniy darolar ... birga jug'rofiya, tarix, hisob ilmi kabi dunyoviy darslarni o'qita boshladi.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
14. [0,9 ball]  
 Quyidagi gapda berilgan ko'p nuqta o'rnida qaysi bog'lovchini qo'llash mumkin?  
*Bu mukofotni sizlar bilan baham ko'ra olaman, ... bunda sizlarning ham mehmatingiz bor.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
15. [1,7 ball]  
 Quyidagi parchada barcha fe'llar qaysi zamon ma'nosini ifodalagan?  
*Biz ertaga bolalar bilan shaharga tushyapmiz, siz ham biz bilan borasizmi? Agar rozi bo'lsangiz, Iskandar akani ogohlantirib qo'yaman.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
16. [2,4 ball]  
 Berilgan gap bir bosh bo'lakli gaplarning (tarkibida eganing ishtirok etmasligiga ko'ra) qaysi turiga mansub?  
*Do'sti ko'p bilan siylash, do'sti oz bilan sirlash.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
17. [0,9 ball]  
 Quyida berilgan qo'shma gap turini aniqlang.  
*Ma'lum bir kasbni tanlagan va uni mukammal o'rgangan insonlardan jamiyatga manfaat yetadi, odamlarga foydasi tegadigan kishilar bu dunyoning ko'rki hisoblanadi.*  
 Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

*Oshxona xodimi:* Assalomu alaykum, xush kelibsiz, xizmat.

*Xo'randa:* Va alaykum assalom. Oshxonangiz soat nechagacha ishlaydi? Bugun kechki soat oltida chet eldan kelgan hamkorlarimni mehmon qilmoqchi edim. Bo'sh stollar bormi? Menga menyuni bersangiz.

*Oshxona xodimi:* Bo'sh joy bor. ***Oshxonamiz kech soat 22:00 gacha ochiq bo'ladi.*** Siz hamkorlaringizni ko'ngildagidan ham ziyoda mehmon qila olasiz. Bizning oshxonani tanlab to'g'ri qildingiz.

*Xo'randa:* Unda bizga soat oltida olti kishilik ***dasturxonni tayyorlab qo'ysangiz.*** Mehmonlarim oshni yaxshi ko'radilar. Biz kelguncha oshning zirvagini tayyorlab tursangiz. Shu bilan birgalikda qo'y go'shtidan qilingan qovurdoq, qovurma sho'rva, olti six kabob tayyorlab qo'ysangiz.

*Oshxona xodimi:* Didingiz juda nozik ekan. Milliy taomlar bilan birgalikda ularning ham taomlaridan tayyorlasak, nima deysiz?

*Xo'randa:* Mehmonlarim rus, ingliz millatiga mansub. Ular nimalarni yaxshi ko'rib tanovul qilsalar, ***shularni*** o'rganib tayyorlab qo'ying.

*Oshxona xodimi:* Ishonchingiz uchun rahmat! Mevalar yeyishni xohlaysizmi, ichimliklardan-chi?

*Xo'randa:* Mevalardan olma, uzum, shaftoli, qovun, tarvuzdan assorti tayyorlang. Albatta, ko'k choy, mevali sharbatlar bo'lsin. Nonlardan obi non, patir qo'yasiz. Bu mehmondorchilik ustida amalga oshiriladigan loyihamiz haqidagi suhbatni ham davom ettiramiz.

18.

[0,9 ball]

Matnda **aks ETMAGAN** ma'lumotni aniqlang.

- A) *Ayrim taomlarni yarim tayyor holatga keltirib qo'yish lozimligi aytilgan.*
- B) *Uchrashuvdan ko'zlangan maqsad faqat kechki taomlanish emasligi haqida ham aytib o'tilgan.*
- C) *O'zbek milliy taomlaridan tashqari boshqa taomlar ham tayyorlash lozimligi aytib o'tilgan.*
- D) *Oshxona xodimining taom tanlashda nihoyatda didli ekanligi e'tirof etilgan.*

19.

[0,9 ball]

Matnda belgilab ko'rsatilgan ***“Oshxonamiz kech soat 22:00 gacha ochiq bo'ladi”*** jumlasidagi ***“ochiq bo'ladi”*** so'zining to'g'ri izohini aniqlang.

- A) *Kunlik ish faoliyati davom etayotganligi ifodalangan.*
- B) *Oshxona eshigi ochiq holda turadi mazmuni ifodalangan.*
- C) *Stollar yig'ishtirilmaligi nazarda tutilgan.*
- D) *Eshiklarni yopish mumkin emasligi nazarda tutilgan.*

20.

[0,9 ball]

Matnda belgilab ko'rsatilgan ***“shularni”*** so'zi qaysi so'zga ishora qilgan?

- A) *xorijliklarning sevimli taomlarini*
- B) *xorijlik mehmonlarni*
- C) *o'zga millat vakillarini*
- D) *o'zbek milliy taomlarini*

Matnni o'qing va quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

Qadimgi rimliklar Mars sayyorasini urush xudosi (Mars) sharafiga shunday deb atashgan. Mars Quyosh atrofida Yerga nisbatan bir yarim baravar uzoqroq masofada turib aylanadi. U Quyosh atrofini Yer sutkasi hisobida 687 kunda aylanib chiqadi. Har 780 kunda Yerning ro'parasidan o'tadi. Marsning diametri (6785 kilometr) Yer diametridan qariyb ikki baravar kichik. Yer o'z o'qi atrofida qancha vaqt aylansa, Mars ham o'z o'qi tevaragida shuncha vaqt aylanadi.

Mars sutkalari Yer sutkasidan 37 minut uzun, xolos. Marsning Fobos va Deymos degan ikki yo'ldoshi bor. Mars Veneradan keyingi Yerga eng yaqin sayyoradir.

Mars sathi qisman Oy sathiga o'xshaydi. Undan ko'plab doirasimon dog'lar – kraterlar joy olgan. Marsda tog' tizmalari ham, g'orlar ham bor.

Kunning yarmida Mars ekvatorida temperatura ba'zan 30 darajaga ko'tariladi. Ammo kechalari hamma yoq juda sovuq bo'lib, temperatura ko'pincha minus 80 darajagacha tushadi. Mazkur sayyorada biron-bir hayot, masalan, mikroorganizmlar bor-yo'qligi hozircha noma'lum.

21.

[2,4 ball]

Mars sayyorasi haqidagi **TO'G'RI** ma'lumotni aniqlang.

- A) Marsga nisbatan Venera sayyorasi Yerga yaqinroq.
- B) Mars sayyorasining ikki juft yo'ldoshi bor.
- C) Marsda xuddi Oy va Yerdagi kabi kraterlar mavjud.
- D) Rimliklar urush xudosisiga shu sayyoraning nomini berishgan.

22.

[2,4 ball]

Qaysi javobda matnga xos **BO'LMAGAN** ma'lumot berilgan?

- A) Mars sayyorasida iqlimning doimiy barqarorligi kuzatiladi.
- B) Yer diametri Mars diametridan salkam ikki marotaba kattaroqdir.
- C) Mars va Yerdagi tun bilan kunning almashish vaqti deyarli bir xil.
- D) Mars sayyorasida bir yil Yerdagi ikki yilga yaqinroq.

23.

[2,4 ball]

Matnda aks etgan ma'lumotni aniqlang.

- A) Mars sayyorasining tortishish kuchi Yerdagi hayotga ta'sir qiladi.
- B) Yerning Quyosh atrofida joylashishi Marsning Quyosh atrofida joylashishiga nisbatan ancha yaqin.
- C) Marsning o'z o'qi atrofida aylanish vaqti Yerning o'z o'qi atrofida aylanishiga bog'liq.
- D) Mars va Oyning o'xshash jihatlari anchagina.

Abdulla Oripovning "Ikki daraxt" she'rini o'qing va quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.

1. Zilol hovuz bo'yi, tuproqda  
Ikki daraxt o'sar yonma-yon.  
Bir urug'dan ko'kargan, shaksiz,  
Ildizlari tutash begumon.
2. Biri chapga tomon anqaygan,  
Beso'naqay, nimta va kesik.  
Biri esa **sersoya**, mag'rur,  
Salobatli, to'g'ri, tippa-tik.
3. Biz tutashmiz shu daraxtlar kabi,  
Bir onani emgan talashib...  
**Achinaman, to'g'rilash mushkul**  
**Huv daraxtni kesib, tarashlab...**

24. [1,7 ball]

She'rning umumiy mazmunida aks etgan fikrni aniqlang.

- A) Jamiyat uchun foydasi tegmaydigan, noto'g'ri yo'llarga kirib qolgan shaxslardan nafratlanish tuyg'usi mavjud.
- B) Bir ota-onadan tug'ilgan farzandlarning turli fe'l- atvorga ega bo'lishi mumkinligiga ishora qilingan.
- C) Ahil, totuv bo'lib yashash uchun insonlar bir urug'ga mansub bo'lishi shart emasligi ifodalangan.
- D) Insonlarni yaxshi va yomonga ajratish, ularga turlicha nazar bilan qarash noto'g'ri ekanligi ifodalangan.

25. [1,7 ball]

She'rdagi "**sersoya**" so'zi qanday badiiy tushunchani ifodalashga xizmat qilgan?

- A) hashamatga, go'zallikka intilib yashovchi
- B) go'zalligini, ko'rkamligini namoyish etuvchi
- C) el-u yurtga, xalqqa manfaat yetkazuvchi
- D) erishgan yutuqlarini ko'z-ko'z qiluvchi

26. [1,7 ball]

She'rning 2-bandi mazmuniga mos keluvchi fikrni aniqlang.

- A) To'g'ri yo'ldan adashgan insonlarning xarakter-xususiyatlariga ishora qilingan.
- B) O'z hayotini izga solib olgan va bundan kibrlangan xarakter-xususiyatlari qalamga olingan.
- C) O'z yaqinlaridan ozor chekkan kishilarning hayot tarzi tasvirlangan.
- D) Hayotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun boshqalarning hisobiga kun ko'radigan insonlarga ishora qilingan.

27. [1,7 ball]

She'rning 3-bandidagi ajratib ko'rsatilgan satrlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Vaqt o'tgandan keyin xatolarni tuzatishga urinmaslikka da'vat qilingan.
- B) Farzandlar o'z vaqtida to'g'ri yo'lga solinmasa, bu xatolikni keyinchalik to'g'rilash qiyin degan mazmun ifodalangan.
- C) Qayta tarbiyalash jarayonidagi ayrim yo'qotishlarga, ketgan vaqtga nisbatan achinish hissi ifodalangan.
- D) O'zgaralar xatosini to'g'rilashga ketgan vaqtga, umrga achinish hissi ifodalangan.

## 28-30.

Matnni o'qing va 28-30-topshiriqlarni bajaring.

Topshiriqlar	Matn
<p><b>28.</b> [1,7 ball] Imloviy xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang.</b></p> <p><b>29.</b> [1,7 ball] Punktatsion xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang.</b></p> <p><b>30.</b> [1,7 ball] Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang.</b></p>	<p><b>A)</b> Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. <b>B)</b> Ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida nafaqat iqlim o'zgarishi, balki insonlarning yashash sharoiti ham keskin o'zgarib ketadi. <b>C)</b> Ma'lumki, keyingi yillarda o'rmonlarni o'ylamay-netmay kesib tashlandi. <b>D)</b> Tozalash inshootlariga ega bo'lmagan sanoat korxonalari bunyod etildi. <b>E)</b> Zavodlardan chiqayotdan chiqindilar havo, suv havzalari, hamda yer maydonlarini ifloslantirib yubordi. <b>F)</b> Xalq aro tashkilotlar bu muammolarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqmoqda.</p>